

Date: 23rd June-2026

JAMILA ERGASHEVANING “BOYBICHCHA” HIKOYASIDA OILA
KONSEPSIYASI

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jamila Ergashevaning “Boybichcha” hikoyasida oila konsepsiyasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda o‘zbek oilasiga xos mehr-oqibat, farzand tarbiyasi, ota-onaga hurmat, oilaviy mas’uliyat va avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar masalalari yoritilgan. Hikoya markazida turuvchi Gulnor kampir obrazi orqali ona mehrining cheksizligi, farzandlarning esa moddiy manfaatlar ta’sirida ma’naviy qadriyatlardan uzoqlashib borishi ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijasida asarda oila nafaqat qon-qarindoshlik birligi, balki ma’naviy tayanch va insoniy qadriyatlar makoni sifatida talqin qilingani aniqlandi.

Kalit so‘zlar: oila konsepsiyasi, ona obrazi, ma’naviy qadriyatlar, farzand burchi, oilaviy munosabatlar, mehr-oqibat, badiiy talqin, Jamila Ergasheva.

THE FAMILY CONCEPT IN JAMILA ERGASHEVA'S STORY “BOYBICHCHA”

Abstract: This article analyzes the artistic interpretation of the family concept in Jamila Ergasheva’s short story “Boybichcha”. The work highlights issues of kindness, child-rearing, respect for parents, family responsibility, and relations between generations characteristic of the Uzbek family. Through the image of the old woman Gulnor, who is at the center of the story, the boundlessness of a mother’s love is shown, and the children move away from spiritual values under the influence of material interests. As a result of the research, it was determined that the family in the work is interpreted not only as a unit of blood kinship but also as a spiritual pillar and a place of human values.

Keywords: family concept, mother’s image, spiritual values, filial duty, family relations, kindness, artistic interpretation, Jamila Ergasheva.

КОНЦЕПЦИЯ СЕМЬИ В РАССКАЗЕ ЖАМИЛЫ ЭРГАШЕВОЙ
“БОЙБИЧЧА”

Аннотация: В данной статье анализируется художественная интерпретация концепции семьи в рассказе Джамилы Эргашевой “Бойбичча”. В произведении освещены вопросы доброты, воспитания детей, уважения к родителям, семейной ответственности и отношений между поколениями, присущих узбекской семье. Через образ старухи Гульнар, стоящей в центре рассказа, показывается



Date: 23rd June-2026



безграничность материнской любви, а дети под влиянием материальных интересов отдаляются от духовных ценностей. В результате исследования было установлено, что в произведении семья интерпретируется не только как единство крови, но и как духовная опора и пространство человеческих ценностей.

Ключевые слова: концепция семьи, образ матери, духовные ценности, долг ребенка, семейные отношения, доброта,

Oila har qanday jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqi ma'naviyatida oila muqaddas qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Ota-onaga hurmat, aka-uka, opa-singil o'rtasidagi mehr-oqibat, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash, sadoqat kabi tushunchalar oilaviy hayotning asosini tashkil etadi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham oilaviy munosabatlar masalasi muhim mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Jamila Ergashevaning "Boybichcha" hikoyasida oila konsepsiyasi milliy qadriyatlar, ota-ona va farzand munosabatlari, mehr-oqibat, burch hamda insoniylik mezonlari asosida yoritilgan. Asar markazida turuvchi Gulnor kampir obrazi orqali o'zbek onasining butun umrini farzandlari baxti uchun bag'ishlaydigan fidoyi siymosi tasvirlanadi. Hikoyaning dastlabki qismidayoq Gulnor kampir va uning turmush o'rtog'i farzandlari uchun chekkan mashaqqatlar tasvirlanadi. Ular besh nafar o'g'ilni voyaga yetkazib, o'qitib, uyli-joyli qilish uchun umr bo'yi mehnat qiladilar. Ayniqsa, kampirning "qo'li qisqa o'g'lining tili ham qisq bo'lmasin" degan tashvishi uning ona sifatidagi mas'uliyatini ochib beradi. U nafaqasini ham ro'zg'orga sarflaydi, tikuvchilik qiladi, qo'shimcha daromad topishga urinadi. Bu jihatlar oilaning moddiy emas, ma'naviy tayanchi ona ekanligini ko'rsatadi. Asarda kenja o'g'il oilasining tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy tomondan eng nochor bo'lgan aynan shu oila kampir uchun eng yaqin va qadrli maskan bo'lib qoladi. Chunki bu yerda kampir o'zini ortiqcha his qilmaydi. Muallif shu orqali oiladagi haqiqiy baxt boylik yoki mansab bilan emas, balki mehr va samimiyat bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Hikoyada oila konsepsiyasining yana bir muhim jihati – ota-onaning farzandlarga bo'lgan cheksiz muhabbati masalasidir. Gulnor kampir barcha o'g'illarini birdek sevadi.

Hikoyada kenja o'g'il Sodiq obrazi alohida ahamiyatga ega. Moddiy jihatdan eng nochor bo'lishiga qaramay, aynan shu o'g'il va uning bolalari kampirga eng yaqin insonlar sifatida tasvirlanadi. Hatto eng ko'p qiynalayotgan kenja o'g'lining taqdiriga boshqalarga qaraganda ko'proq achinadi. U boyroq farzandlarining beparvoligidan ranjisa ham, ulardan voz kechmaydi. Bu holat onalik mehrining cheksiz va beg'araz ekanligini ko'rsatadi.

Muallif kampirning yoshligidagi xotiralari orqali ota-onaning farzand kamoli yo'lida qanday qurbonliklarga tayyor bo'lishini tasvirlaydi. Xususan, o'g'lini o'qitish uchun bog'dan olma terishga borishi va agronom tomonidan tahqirlanishi juda ta'sirchan epizod hisoblanadi. Gulnor kampirning daraxtdan tushayotib lozimi yirtilishi, odamlar oldida izza bo'lishi, ammo o'g'li ta'lim olishi uchun bunga ham chidashi onalik

Date: 23rd June-2026

fidoyiligining yorqin namunasidir. Shu voqea orqali muallif farzandlarning bugungi muvaffaqiyati ortida ota-onaning mashaqqatli mehnati yotganini eslatadi.

Asarda farzandlarning ota-onaga munosabati ham chuqur psixologik tasvirlanadi. O'g'illarining barchasi moddiy jihatdan yaxshi yashayotgan bo'lsalar-da, onalariga mehr va e'tibor ko'rsatishda sustkashlik qiladilar. Kampirning bir o'g'ildan ikkinchi o'g'ilnikiga navbat bilan yurishi, go'yo bir mas'uliyat yoki yuk sifatida qabul qilinishi oiladagi ma'naviy qadriyatlarning zaiflashib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, o'g'illarning kampirni o'z uyida qancha muddat turishini hisob-kitob qilishi oilaviy munosabatlarning samimiyligidan uzoqlashganini ko'rsatadi.

Hikoyadagi kelinlar obrazlari ham oila konsepsiyasini ochishda muhim o'rin tutadi. Kelinlarning ayrimlari qaynona xizmatini burch emas, ortiqcha tashvish sifatida qabul qiladilar. Masalan, kenja o'g'il mehmon bo'lib kelganida unga biror ovqat tayyorlab bermaslik holati nafaqat mehmondo'stlik, balki insoniylik tamoyillariga ham zid ekanligi ko'rsatiladi. Muallif bunday epizodlar orqali oiladagi mehr va hurmatning susayishini tanqid qiladi. Gulnor kampirning boyroq o'g'linikida yashagan davri ham oila konsepsiyasining mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Tashqi tomondan farovon va tartibli ko'ringan bu oilada kampir o'zini begona his qiladi. Kelinning qaynona kelganidan norozi bo'lishi, o'g'lining esa onasining ko'nglini tushunmasligi kampirning ruhiy yolg'izligini yanada kuchaytiradi. Demak, muallif nazarida oilaning mustahkamligi moddiy sharoit bilan emas, balki qalblarning yaqinligi bilan belgilanadi.

Asardagi eng ta'sirli jihatlardan biri kampirning qiz farzand haqidagi armonidir. Asarda qahramonning "Esiz, Alloh menga bir qiz bermagan ekan" degan armonli fikri ham chuqur ramziy ma'no kasb etadi. O'zbek xalqida "qiz – ich ko'ylak" degan hikmat bor. Kampirning ushbu armoni o'g'illaridan topa olmagan mehr va dardkashlikka bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi. Bu jihat asarning g'oyaviy qatlamini yanada boyitadi.

Hikoya oxirida kampirning vafoti va singlisining marsiyasi o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Marsiyasimon faryod asarning g'oyaviy cho'qqisini tashkil etadi:

Besh o'g'illi boybichcham,
Suyunganim opam-ov,
Topolmayin bir dardkash,
Kuyunganim opam-ov.
Shunday kunda yuragim
Tilindi-ku, opam-ov,
Bir qizingni yo'qligi,
Bilindi-ku, opam-ov...

Ushbu misralar orqali muallif ko'p farzandli bo'lish baxtning yagona mezonini emasligini, inson uchun eng zarur narsa mehr, e'tibor va dardkashlik ekanini ta'kidlaydi. Aynan shu sahnada o'g'illar onalarining qadriga yetmaganliklarini anglay boshlaydilar. Biroq bu anglash kechikkan bo'ladi. Muallif shu orqali ota-onani tirikligida qadrlash g'oyasini ilgari suradi. Kampirning o'limidan keyingi pushaymonlik o'quvchini ham chuqur mushohadaga chorlaydi. "Boybichcha" hikoyasida oila tushunchasiasi mehr-oqibat,



Date: 23rd June-2026

farzandlik burchi, ota-onaga hurmat va insoniy mas'uliyat tushunchalari bilan bog'liq holda talqin etiladi. Asar oilani insonning eng muqaddas maskani sifatida ulug'laydi va ma'naviy qadriyatlar yo'qolgan oilada haqiqiy baxt bo'lmasligini badiiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa qilib aytganda, Jamila Ergashevaning "Boybichcha" hikoyasi zamonaviy o'zbek nasrida oila mavzusini chuqur yoritgan asarlardan biri hisoblanadi. Hikoyada Gulnor kampir obrazi orqali ona mehrining buyukligi, ota-onaning farzand kamoli uchun chekkan zahmatlari va bu fidoyilikning har doim ham munosib qadrlanmasligi tasvirlangan. Asar oiladagi ma'naviy qadriyatlar yemirilganda insonning yolg'izlanib qolishini ko'rsatadi. Muallif o'quvchini ota-onaga mehr ko'rsatish, ularning xizmatini qadrlash va oilaviy rishtalarni asrashga da'vat etadi. Shu jihatdan "Boybichcha" hikoyasi oila konsepsiyasining badiiy-falsafiy mohiyatini ochib beruvchi muhim asar sifatida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
5. Rasulov A. Badiiylik mezonlari. – Toshkent: Fan, 2011.
6. Ziyo.uz kutubxonasi

